

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**PEDAGOG XODIMLAR UCHUN YILLIK UZAYTIRILGAN MEHNAT TA‘TILI
DAVOMIYLIGI ME‘YORLARINI BELGILASH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq pedagog xodimlar uchun yillik uzaytirilgan mehnat ta‘tili va qo‘shimcha ta‘tillar davomiyligi me‘yorlarini belgilash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 501-moddasida pedagog xodimlar mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida pedagog xodimlar uchun yillik uzaytirilgan mehnat ta‘tilining davomiyligi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan Ijtimoiy-mehnat masalalari bo‘yicha respublika uch tomonlama komissiyasi bilan kelishilgan holda belgilanishi nazarda tutilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Pedagog xodimlar uchun yillik uzaytirilgan mehnat ta‘tili davomiyligi me‘yorlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta‘limi vaziri X.U. Umarova hamda oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri I.Y. Abduraxmonov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2023-yil 26-iyun,
263-son

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 26-iyundagi 263-son qaroriga
ILOVA

**Pedagog xodimlar uchun yillik uzaytirilgan mehnat ta‘tili davomiyligi
ME‘YORLARI**

T/r	Lavozimlar nomi	Yillik uzaytirilgan mehnat ta‘tili (kalendar kunda)
I. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari		
1. Umumiy turdagi davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari		
1.	Direktor	42
2.	O‘qituvchi, o‘qituvchi-logoped, o‘qituvchi-defektolog	56
3.	Tarbiyachi, tarbiyachi-metodist, musiqa rahbari, psixolog	42
4.	Jismoniy tarbiya yo‘riqchisi, xoreograf, suzish bo‘yicha yo‘riqchi, tarbiyachi yordamchisi	27
2. Jismoniy yoki psixik va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan hamda rehabilitatsiya markaziga ega bo‘lgan davlat ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta‘lim tashkilotlari		
1.	Direktor	56
2.	O‘qituvchi, o‘qituvchi-logoped, o‘qituvchi-defektolog	56
3.	Tarbiyachi, tarbiyachi-metodist, musiqa rahbari, eshitish xonasi yo‘riqchisi	56

4.	Psixolog	42
5.	Jismoniy tarbiya yo'riqchisi, xoreograf, suzish bo'yicha yo'riqchi, tarbiyachi yordamchisi	27
II. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari		
1. Boshlang'ich, umumiy o'rta ta'lim maktablar va maktab-internatlar, Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlar, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari, Respublika o'quv-tarbiya muassasalari		
1.	Direktor, ijrochi direktor, uning o'rinbosarlari (ma'muriy-xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, xo'jalik mudiridan tashqari), direktor maslahatchisi, maktab maslahatchisi	56
2.	O'qituvchi, o'qituvchi-logoped, o'qituvchi-defektolog, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tarbiyachisi va katta tarbiyachisi	56
3.	Katta tarbiyachi, tarbiyachi, kuni uzaytirilgan guruh tarbiyachisi, tungi tarbiyachi, navbatchi tarbiyachi, tarbiyachi yordamchisi, psixolog, ijodiy-madaniy ishlar bo'yicha targ'ibotchi, eshitish xonasi yo'riqchisi, to'garak rahbari, musiqa rahbari, ta'lim ustasi	42
2. Sport turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlari, Respublika olimpiya zaxiralari maktabi, Sport turlariga tayyorlash markazlari, Sport turlari bo'yicha mahorat maktablari, Sport turlari bo'yicha akademiyalar		
1.	Direktor, uning o'rinbosarlari	27
2.	O'qituvchi, harbiy tayyorgarlik rahbari	56
3.	Trener, tarbiyachi, psixolog	42
3. "Meharli maktab" davlat ta'lim muassasasi		
1.	Direktor, uning o'rinbosarlari, tarbiyachi yordamchisi	27
2.	Umumiy o'rta ta'limni tashkil etish bo'yicha pedagog xodimlar, maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etish bo'yicha tarbiyachi, defektolog, psixolog, musiqa rahbari	56
4. Mehrbonlik uylari		
1.	Direktor, uning o'rinbosarlari	56
2.	O'qituvchi-defektolog, o'qituvchi-logoped, musiqa rahbari, katta tarbiyachi, tarbiyachi, jismoniy tarbiya bo'yicha yo'riqchi, trener-yo'riqchi, mehnat bo'yicha yo'riqchi, to'garak rahbari	56
3.	Psixolog	42
4.	Jismoniy tarbiya bilan davolovchi yo'riqchi, suzish bo'yicha yo'riqchi	27
III. Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari		
1. Barkamol avlod bolalar maktablari, O'quvchi yoshlar markazi		
1.	Direktor, uning o'rinbosarlari	27
2.	Uslubchi, to'garak rahbarlari	42
3.	Tadbirlar tashkilotchisi	27
2. Sport turlarini rivojlantirish respublika markazlari, Bolalar-o'smirlar olimpiya zaxirasi sport maktablari, Ixtisoslashtirilgan sport maktablari, Sport maktablari		
1.	Direktor, uning o'rinbosarlari	27
2.	Trener (trener-o'qituvchi)	42
3.	Psixolog	42
4.	Yo'riqchi-uslubchi, xoreograf, musiqiy operator — akkompaniator, seleksiya bo'yicha trener	27
3. Bolalar musiqa va san'at maktablari		
1.	Direktor, uning o'rinbosarlari	27
2.	O'qituvchi, konsertmeyster	56

IV. O'рта maxsus ta'lim tashkilotlari		
1.	Direktor, ijrochi direktor, direktor o'rinbosarlari, bo'lim boshligi, uslubchi	27
2.	O'qituvchi, chaqiriluvgacha tayyorgarlik rahbari, jismoniy tayyorgarlik rahbari, konsertmeyster	56
3.	Psixolog, tarbiyachi, to'garak rahbari	42
V. Professional ta'lim tashkilotlari		
1. Kasb-hunar maktablari, kollejlari, texnikumlar		
1.	Direktor, direktor o'rinbosarlari, bo'lim boshlig'i, katta usta, ustaxona mudiri, uslubchi	27
2.	O'qituvchi, ishlab chiqarish ta'limi ustalari, chaqiriluvgacha tayyorgarlik rahbari, jismoniy tayyorgarlik rahbari, konsertmeyster, trener-o'qituvchi	56
3.	Psixolog, tarbiyachi, to'garak rahbari	42
2. Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari		
1.	Direktor, uning o'rinbosarlari, instruktor-metodist	27
2.	O'qituvchi, harbiy tayyorgarlik rahbari	56
3.	Trener, tarbiyachi, psixolog, sport psixologi	42
VI. Oliy ta'lim tashkilotlari		
1.	Oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktor, ijrochi direktor), prorektorlari (o'rinbosarlari), ilmiy kengashning ilmiy kotibi, oliy ta'lim muassasasi kengashi kotibi, o'quv-uslubiy (boshqarma), ilmiy va ma'naviyat bo'limi rahbari, uning o'rinbosarlari, fakultet dekani va uning o'rinbosarlari, tyutor, uslubchi	27
2.	Professor-o'qituvchilar	56
3.	Tarbiyachi-pedagog, psixolog	42
VII. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlari		
1.	Qayta tayyorlash va malaka oshirish muassasasi rahbari va uning o'rinbosarlari, fakultet dekani va uning o'rinbosarlari, o'quv, ilmiy va ma'naviyat bo'limi rahbari va uning o'rinbosarlari, uslubchi, metodik xizmat ko'rsatish bo'limlari fan metodistlari	27
2.	Professor-o'qituvchilar	56
3.	Psixolog	42

Izoh. Ushbu me'yorlarda keltirilgan xodimlarga yillik uzaytirilgan mehnat ta'tili uchun haq to'lashda yakshanba va bayram kunlari inobatga olinmaydi.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.06.2023-y., 09/23/263/0432-son)